

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMI TASHKIL ETISH USLUBIYOTINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

Jo'rayeva N.O

Buxoro davlat pedagogika instituti

<https://orcid.org/0000-0002-3139-2217>

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda mobil ta'limning texnik asosi simsiz ixcham qurilmalar ya'ni mobil telefonlar, PDA, noutbuklar kabi o'quv qurollaridan foydalanish ularning texnik imkoniyatlaridan faqat o'quv adabiyotlarining elektron nusxalaridan foydalanish bilan chegaralanadi. Bu imkoniyatlardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, uning imkoniyatlarini kengaytirish ta'lim sifati hamda samaradrligini oshirishga yordam beradigan omil-vosita bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi modul ta'lim jarayonida mobil ilovalaridan foydalanish talabalarga topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnama vazifasini bajarib beradi. Ushbu maqolada, mobil ta'lim zamonaviy o'qituvchidan shuni talab etadiki, internet texnologiyalari yordamida o'quvchilarni mustaqil ravishda bilim olishga o'rgatish hamda doimiy ta'lim olishini ta'minlovchi ilovalar yaratishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: mobil ta'lim, mobil ilova, mobil telefon, noutbuk, ta'lim, topshiriq, mustaqil ta'lim.

ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИКИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Жураева Н.О

Бухарский государственный педагогический институт

<https://orcid.org/0000-0002-3139-2217>

АННОТАЦИЯ

В настоящее время техническая основа мобильного обучения - это беспроводные компактные устройства такие как мобильные телефоны, КПК, и ноутбуки и использование таких средств обучения их технические возможности ограничивает использования только электронных копий учебной литературы. Эффективное использование этих технических средств в образовательном процессе, расширение его возможностей является фактором, способствующим

повышению качества и эффективности образования. В частности, использование мобильных приложений в сегодняшнем модульном учебном процессе позволяет студентам использовать эти приложения в качестве инструкций для выполнения данных заданий. В этой статье изложено, что мобильное обучение обязывает, современного учителя использовать интернет-технологии для обучения учащихся самостоятельной работе, а также для создания приложений, обеспечивающих непрерывное образование.

Ключевые слова: мобильное обучение, мобильное приложение, мобильный телефон, ноутбук, образование, задание, независимое обучение.

FEATURES OF THE METHODOLOGY OF ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Juraeva N.O.

Bukhara State Pedagogical Institute

<https://orcid.org/0000-0002-3139-2217>

ABSTRACT

Currently, the technical basis of mobile learning is wireless compact devices such as mobile phones, PDAs, and laptops, and the use of such learning tools limits their technical capabilities to the use of only electronic copies of educational literature. The effective use of these technical means in the educational process, the expansion of its capabilities is a factor contributing to improving the quality and effectiveness of education. In particular, the use of mobile applications in today's modular learning process allows students to use these applications as instructions for completing these tasks. This article states that mobile learning obliges modern teachers to use Internet technologies to teach students to work independently, as well as to create applications that provide continuing education.

Keywords: mobile learning, mobile application, mobile phone, laptop, education, assignment, independent learning.

KIRISH

Bugungi zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda hamda bu ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi eng samrali yondashuv sifatida qaralmoqda. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim bitiruvchilarini raqamli texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish kompetentligini shakllantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Shunday ekan,

pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishda ularning raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'limga ularni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli ta'lim – ta'lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o'quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta'lim vositalar orqali o'quv jarayonini davom ettirish, balki ta'lim sifatini hamda samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quv jarayoniga raqamli ta'limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan keng va samarali foydalanish asosida amalga oshiriladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari pedagog innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular pedagogga ma'lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi.

Shunga ko'ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, veb xizmatlar, mobil ilovalar hamda boshqalardan foydalangan holda keng ko'lamli kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o'rin tutadi. Bugungi davr zamonaviy o'qituvchidan shuni ta'qazo etadiki, internet texnologiyalari yordamida o'quvchilarni mustaqil ravishda bilim olishga o'rgatish. O'qituvchi esa o'quvchilar faoliyatini yo'naltiruvchi va tuzatuvchi tarbiyachi vazifasini bajaradi.

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning loyihaviy, o'quv va tadqiqot faoliyatini tashkil etishda eng samarali vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ular raqamli ta'lim resurslarining variativ elektron o'quv modullaridan foydalaniish, shuningdek loyiha faoliyati natijalarini samarali tarzda taqdim etish imkoniyatlarini yaratadi. Loyihani amalga oshirish vositasi sifatida raqamli talim texnologiyalaridan foydalanganda, o'quvchining ijodiy o'zini-o'zi anglash imkoniyatlari kengayadi, uning qobiliyatlari rivojlanadi, chunki u loyiha mavzusini ochib berish uchun zarur bo'lgan malumotlar va amaliy ishlarni bajarishi uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlanadi.

Ta'limda gadjetlar va dasturlar masofaviy o'qitish, uy vazifalarini tayyorlash va bajarish, taqdimotlar qilish, dasturlash va ijodiy vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat materialni yaxshiroq idrok etishga va o'rganishni yanada interaktiv qilishga yordam beradi. Ta'limda o'qituvchiga xos bo'lgan interaktivlik va intellektual komponentni kuchaytiradigan o'quv dasturi yaratish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ilm-fan rivojlanishini jadallashtiradi va o'qitishda yangi imkoniyatlarni vujudga kelishiga olib keladi. O

‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha olibborgan tadqiqotlarida Yu.V. Logvinenko quyidagilarni ta’kidlaydi [3]:

Ta’lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishni uchta didaktik darajaga ajratish mumkin. Bular:

- an’anaviy pedagogik muammolarni hal qilish darajasi;
- jamiyatni axborotlashtirish hisobiga yangi muammolarni hal qilish darajasi;
- o‘qituvchilar ta’limining yangi namunasini yaratish darajasi.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik darajalari, ta’limiy maqsadlar va vazifalar nuqtai nazaridan samarali natijalar berishi xorijiy olimlar tomonidan qayd etilgan [4]. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik darajalari quyidagilar bilan belgilanadi:

- ta’limda raqamli texnologiyalardan faqat aloqa vositasi sifatidagi foydalanish;
- haqiqiy, ijodiy va hamkorlikda o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash;
- interfaollik darajasi, baholash yondashuvlarining keng doirasini ta’minlash;
- smart-ta’limni samarali tashkil etish darajasi.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik darajalarini tadqiq etish texnologik rivojlanish bilan bog‘liq holda kengayib boradi, ta’limiy maqsadlar va vazifalar fan va jamiyat rivojlanishining talab va ehtiyojidan kelib chiqib shakllanadi. Hozirgi kunda jamiyat rivojlanishi sohalarda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llovchi dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma’lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining tegishli ma’lumotlarini tezkor raqamlashtirishni ta’minlash bilan uzviy bog‘liq.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda jahonda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori sifatli bilim berish hamda sohalarda raqobatbardosh mutaxassis-kadrlar yetkazib berish maqsadida raqamli texnologiyalardan samarali va o‘rinli foydalanish muammosi jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu borada ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Koreya, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Hindiston, Germaniya, Italiya kabi ta’lim tizimi rivojlangan davlatlarda raqamli texnologiyalar asosida talabalar o‘quv jarayonlari faoliyatini takomillashtirish muammolari fan va ta’lim tizimini raqamlashtirish bilan birga parallel tarzda rivojlanib bormoqda. Chunki, hozirgi kunda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun yangi imkoniyatlar qidirilmoqda. Jahon andozalariga mos keladigan ta’lim texnologiyalaridan biri sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali keng jamoatchilik auditoriyasini qamrab olish soha olimlari oldidagi asosiy maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifatini oshirishda barcha fanlar bo‘yicha mobil ilovalardan samarali foydalanish

asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil etish va shu asosda o'qitish jarayonini olib borish kasbiy yetuk hamda ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish va ta'lim jarayoniga mobil ilovalaridan foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy va uslubiy adabiyotlar yaratildi. Jumladan, B.Ziyomhammadov va M.Tojiyevlar tomonidan yaratilgan "Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli" nomli uslubiy qo'llanmada rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan pedagogik texnologiya tamoyillari va zamonaviy xududiy modeliga asos solingan [5]. Mazkur tadqiqot ishida keltirilgan g'oyalardan fanlarni zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha dastur sifatida qo'llash mumkin.

METHODOLOGY

Falsafiy, ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili asosida ta'lim sohasidagi ta'lim jarayonini mobil qo'llab-quvvatlash tizimlarini qurishning zamonaviy konsepsiya va usullari belgilab olindi. O'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashning mavjud avtomatlashtirilgan tizimlari tahlil qilingan. O'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash jarayonida mobil texnologiyalarni integratsiyalash tamoyillari o'rganiladi. Ta'lim jarayonini mobil qo'llab-quvvatlash tizimining o'quv jarayonidagi roli va o'rni belgilanadi va uning mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar shakllantiriladi. O'quv jarayonini mobil qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish shartlari aniqlangan. Ushbu tahlil natijalari ishlab chiqilayotgan tizimning tarkibiy qismlarini loyihalashda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarining rivoji yagona jahon ta'lim fazosini shakllantirishga keng yo'l ochib berdi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlarining kengayishi ta'lim samaradorligini hamda ifatini oshirishda undan foydalanish zaruratini oshishiga zamin yaratmoqda. Bu esa butun hayot davomida o'rganish, ta'lim olish imkoniyatlarini yaratuvchi, ta'lim muassasasi, o'qituvchi, o'quv manziliga bog'liq bo'lmagan ochiq ta'lim tamoyilini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Natijada raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislarni shakllantirish zarurat bo'lib qolmoqda.

Raqamli texnologiyalarga kompyuter texnologiyalari, internet, multimedialar va boshqa texnika-texnologiya innovatsiyalarni ham kiritish mumkin. Multimedialar vositalari asosida ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Bunday raqamli texnologiyalari vastasida ta'lim berishning bir qator afzalliklari mavjud: berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati mavjud; ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi; ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'lish, olingan

bilimlar bo'lajak kadr xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Oqilona tuzilgan mobil ilovalar axborotni talaba tomonidan o'zlashtirilishining psixologik va pedagogik qoidalari e'tiborga olingan taqdirda o'qitishni individuallashtirish va differensiyalashtirishga, talabalarning qiziqishlari va o'qishdagi mustaqil faoliyatini rag'batlantirishga imkon beradi. Mobil ilovalar o'qituvchi sifatida — o'qituvchini va kitobni qisman yoki to'liq o'rni bosadigan va bunda u:

- o'quv axboroti manbai;
- multimedia va telekommunikatsiya imkoniyatlari bilan tamoman yangi sifat darajasidagi ko'rgazmali vosita;
- individual va axborot muhiti; trenajyor;
- talabalar bilimni tashhislash va nazorat qilishning vositasi vazifalarini bajaradi.

D.Pogulyaev mobil o'quv vositalarini vazifalariga ko'ra tasniflaydi:

a) ko'chma o'quv materiallarini o'rganish uchun mobil o'quv vositalari (mobil elektron darslik yoki kitob, mobil lug'at tarjimoni, teleko'rsatuv va video eshittirishlar uchun multimedia vositalari);

b) talabalar bilan mobil aloqa vositasi sifatida (mobil chat va konferentsiya qo'ng'irog'i, mobil elektron pochta, mobil forum yoki blog);

v) bilimlarni nazorat qilish vositasi sifatida (mobil test va so'rovlar vositalari; so'rovlar va testlarni o'tkazish uchun mobil dasturiy vositalar);

d) ko'nikma va malakalarni shakllantirish vositasi sifatida (mobil tadqiqot; mobil o'yin; mobil trening);

e) mobil ta'limni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida (mobil yordam tizimi; ma'lumotlarga mobil kirishni ta'minlash vositalari).

Mobil qurilmalar uchun loyihalarni texnik amalga oshirishning ikkita yo'nalishi mavjud: mobil veb-sayt va mobil ilova.

1. Mobil veb-sayt mobil qurilmada ko'rish va ishlash uchun moslashtirilgan WEB-saytdir. Sayt JavaScript, HTML5 va brauzer API-laridan foydalanadigan interaktiv komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday holda, bunday amalga oshirish veb-ilova deb ataladi [6].

2. Mobil ilovalar - mobil qurilmalarga o'rnatiladigan ma'lum bir mobil platforma (iOS, Android, Windows Phone) uchun maxsus ishlab chiqilgan dastur.

Bunda asosan "Qarorlar shajarasi" muayyan fan, kurs asoslari borasidagi murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir nechta xulosalar orasidan eng maqbul yechimni topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Bumerang” texnologiyasi foydalanish orqali tahsil oluvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olishga qaratilgan.

“Insert” (BBB) metodi-o‘quv materialini o‘zlashtirish va mustahkamlash, tahsil oluvchilarning kitob bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim topshiriqlarini yakka tartibda bajarishda qo‘llaniladigan texnologiyadir.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot oliy o‘quv yurtlari faoliyatida umumkasbiy fanlarni o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida turli tomonlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmuasi bilan belgilanadigan ta’lim sifatini oshirish muammolarini hal qilish zarurati bilan bog‘liq. O‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash tizimiga mobil texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha bir qator shart-sharoitlar belgilandi; mobil o‘quv jarayonini amalga oshirishni tashkiliy-pedagogik ta’minlash uslubiy jihatdan asoslanadi va tavsiflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Губин А. Ю., Ефремов Д. А., Леонтьев К. Ю. Разработка мобильного приложения для осуществления мониторинга качества образовательного процесса / **НОВАЯ НАУКА: ОТ ИДЕИ К РЕЗУЛЬТАТУ: Международное научное периодическое издание по итогам Международной научно-практической конференции (29 октября 2015 г, г. Стерлитамак).** /в 2 ч. Ч.1 – Стерлитамак: РИЦ АМИ, 2015. – 261 с.
2. Колисниченко Д. Н. Самоучитель программирования для Android. – БХВ-Петербург, 2012.
3. Ю.В. Логвиненко. Дидактические преимущества применения новых информационных технологий в образовательном процессе. Вектор науки ТГУ. № 1(4), 2011. -106-стр
4. Олимов К.Т., Авлиякулов Н.Х., Рустамов Р. Касбий фанларни ўқитишнинг модул тизими // Касб-ҳунар таълими. –Т., 2003. – № 2. – Б. 18. 5. Зиёмухамедов Б. “Таълим технологиялари” ўқув предмети битта мавзуси назарий ва амалий машғулотларнинг ўзбек модели асосида тузилган лойиҳалари // **Методик қўлланма.** – Т.: 2012. – 60 б.
6. Jurayeva N.O. Fundamentals of Organizing Students’ Independent Work Using Mobile Applications. *Child Studies in Asia-Pacific Context (CSAC)*, 2022, 12 (1). 255-266 p
7. Jurayeva N.O. Mobile Softwareanwendungen zur Organisation unabhängiger Bildung. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. -661-667 p